

AJDODLAR XOTIRASI ABADIY BARHAYOT

Xolmirzayeva Fotima Komiljonovna

45-sonli “Nurli Maskan” maktab internati
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Uzoq o‘tmishdan asrlar osha kelayotgan ma’naviy, ilmiy merosni tadqiq etish va uni xalqimiz ongi va qalbiga singdirish va ayniqsa yosh g‘unchalarimizni shu ozuqa bilan oziqlantirishimiz, qadim suronli davrlarni tushunturish anglatishdagi keng qamrovli va murakkab, o‘ziga yarasha mashaqqatlardan iborat jarayondir.

So‘nggi yillarda yurtimizning qator qadimiylar tarixiy shaharlari tarixini o‘rganish, yoritib berish yo‘lida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Mustabid tuzum sharoitida atayin xalqimiz yodidan uzoqlashtirilgan, nomlari allaqachonlar unutishga mahkum etilgan alloma-mutafakkirlarimizning tabarruk ismlari yana o‘z ona yurtlarida qaytadan eshitila boshladi. Ularning o‘chmas ilmiy meroslari asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da vatandoshlarimizga etkazilmoqda.

Turkiston mintaqasidan shu qadar ko‘p ilm ahli etishib chiqqanki, biz bugun ulardan faqat mashhurlarinigina taniyimiz, asarlaridan boxabarmiz.

Nomlari etib kelsa-da asarlari hali topilmagan, yoki asarlari ma’lum biroq, muallifini aniqlash lozim bo‘lgan talay ishlar oldinda.

Aynan ushbu muammolar Farg‘ona vodiysi ulamolari va ular qoldirgan ilmiy meros uchun ham taalluqlidir.

Uyg‘onish davrida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Farg‘ona qasaba-shaharlaridan biri bu – Axsikentdir. Bu erdan diniy va dunyoviy ilm-fan taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissalarinii qo‘shtigan mashhur olimlarni qayd etib o‘tdik. Yana shuni ham aytish joizki, keyingi tadqiqotlar natijasida yangi-yangi axsikatiy taxallusli olimlarning nomlari manbalarda uchramoqda.

«IX - XIII asr Evropa madaniyati chuqur tanazzulga uchraganda Evropa xalqini Sharq faylasuflari asarlari kutqardi va kelgusi rivojlanish yo‘lini ko‘rsatib berdi», degan sharqshunos olim E.E. Bertels.

Ayni shu davrlarda Axsikentda ham fanning barcha tarmoqlari gurkirab rivojlandi. Mintaqada ulg‘aygan olimlar nafaqat vodiyda, balki, Markaziy Osiyodagi boshqa shaharlarda ham axsikatiy, farg‘oniy, o‘shiy, kosoniy va boshqa nisbalar bilan dunyo ilm ahliga ustozlik qilib, o‘z izlaridan tuganmas ilm xazinasini meros qoldirib ketdilar.

Biz ham ajdodlar ishiga munosib holda ular haqida asarlar yozishni va shu orqali bobolar nomi va merosini voris avlodlarga etkazishni maqsad qilib oldik. Bu borada tabib, tarixchi, adib va shoir bo‘lgan Mahmud Hakim Yayfoniy-Xo‘qandiyning (1850–1930) ushbu so‘zlari diqqatga sazovordir: «Agar siz dunyoda ikkinchi bor yashashni istasangiz, bilganlaringizni yozib qoldiring». Sayyidlar faxri Alixonto‘ra Sog‘uniy «Tarixi Muhammadiy» kitobida aytganidek: «Inson umri o‘tar, yozgan so‘zlari qolar».

«Qanday kitob o‘qishingni aytsang, men senga kimligingni aytaman. Kishilarning kutubxonasini ko‘zdan kechirish bilan, uning xarakteri va aqliy kamoloti haqida aniq tushunchaga ega bo‘lish mumkin», degan edi fransuz muarixi Sharl Blan. Shunga muvofiq hamyurtlarimiz javonlarini tarixiy, ilmiy ma’lumotlarga boy, vorisiylikka daxldor kitoblar bilan to‘ldirish maqsadida «Axsikent kutubxonasi» rukni ostida kitoblar nashr qilishni rejalashtirdik.

Darvoqe, kitoblar faqat Axsikent va axsikatiylar bilangina cheklanib qolmaydi. Aksincha, tariximizning hozirgacha mavhum bo‘lib kelgan yoki noto‘g‘ri talqin qilingan sahifalari ham qaytadan tadqiq etilib, kitob holiga keltiriladi.

Farg‘ona vodiysining qadimiy shaharlari ko‘rinishiga razm solsangiz, uzoq tarixdan so‘zlovchi me’moriy inshootlar deyarli yo‘qligidan taajjublanasiz. U holda Bobur Mirzo tasvirlagan qadimiy Koson, mustahkam Pop qo‘rg‘oni, Andijonning mashhur arki va boshqalar qani? Ular qachon va nima sababdan vayron bo‘ldi? Bu haqdagi ma’lumotlar qaysi asarlarda mavjud?

Bundayin savollarga javob berish asnosida kitoblar yozish ham maqsad-intilishlarimiz sirasiga kiradi. Aslida «izlagan topadi», deganlaridek, bu to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Ishoqxon Ibratning asarlari orqali ham bir oz bo‘lsa-da o‘rgandik. Ya’ni, 1621 yilda Axsikentda dahshatli zilzila chog‘ida, Andijonda ham hammayoq vayron bo‘lgan ekan. Demak, ayni bir paytda kuchli er silkinishlari Pop, Koson, Quva, O‘sh, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlarini ham vayronaga aylantirgan bo‘lishi ehtimolga yaqinroqdir.

Yana ayrim masalalar ham borki, ularga javobni birlamchi manbalarni ko‘zdan kechirgan holdagina javob berish mumkin. Balki, Ahmad al-Farg‘oniyning nilometr asbobini yaratish g‘oyasi ham tasodifiy emasdir. Shunday asbobni yaratish fikri Sirdaryo bo‘ylarida o‘tgan bolalik davrlaridagi hayotiy tajribalari bilan bog‘liq bo‘lsa ajab emas. Buni endi keyingi tadqiqotlarimiz ko‘rsatadi.

Adib Xurshid Davron aytganidek: «Tarix — bu quyoshga o‘xshaydi. Unga peshvoz qarab yoursang, peshonang yorug‘, yo‘ling norloq, ko‘zlarining nurli bo‘ladi. Unga orqa o‘girsang, faqat soyangni ko‘rasan, xolos... Bu dunyoda eng saodatmand lahzalardan biri nihol o‘tkazmoqdir. Baxil odam daraxt o‘tkazmaydi. Daraxt ekkan kimsa uni faqat o‘zi uchun emas, tug‘ilgan va tug‘ilajak farzandlari, nevaralari uchun o‘tqazadi. Tarix esa bobolar bog‘idir».

Xullas, «bobolar bog‘i» bo‘lmish tariximiz bo‘stoniga ko‘chatlar o‘tqazib, uni obod qilish hamda gul-u mevalaridan barchani bahramand etish Vatan tarixchilarining pirovard maqsadi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. Ismoilov Yu. Namangan faxri.-Namangan: Namangan nashriyoti, 1994.
2. Ismoilov Yu., Ro‘zinov B. Axsikent-qadimgi farg‘ona poytaxti.- Namangan: Namangan nashriyoti, 2013. Ishoqxon to‘ra Ibrat. Tarixi Farg‘ona.-Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
3. 19. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy.- Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
4. Muhammad muftiy Ohangaroniy. Mavlono Lutfulloh manoqibi.- Toshkent: Imom al-Buxoriy jamg‘armasi, 2002.
5. Nuriddinov A. Maxdumi A’zam Kosoniyl.-Toshkent: Fan, 2008.